

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi
Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi raisining
o‘rinbosari



Sh.Suyunov

2026-yil 26-yanvar

**O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Jamoatchilik
kengashi yig‘ilish**

BAYONI

Toshkent shahri

№ 1

2026-yil 26-yanvar

Yig‘ilishga raislik qildi:

Shuhrat Suyunov, *Kengash raisining o‘rinbosari*

Ishtirok etdilar:

Jamoatchilik kengashi a‘zolari
(ro‘yxat bo‘yicha)

KUN TARTIBI:

- 1. Jamoatchilik kengashi faoliyatini yanada takomillashtirish, yangi a‘zolari qabul qilish.**
- 2. O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining 2026-yil uchun mo‘ljallangan ish rejasi loyihasini muhokama qilish.**

Yig‘ilishni Jamoatchilik kengashi raisining o‘rinbosari Sh.Suyunov kirish so‘z bilan ochdi.

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida suv resurslari bilan bog‘liq masalalarga alohida e‘tibor qaratildi. Xususan, dunyoda suv tanqisligi muammosi tobora dolzarb bo‘lib

borayotganligi, shu bois islohotlarimizning ilk kunlaridanoq suvdan oqilona foydalanish davlat siyosati darajasiga olib chiqilgani ta'kidlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-avgustdagi PQ-250-son qaroriga muvofiq suvni tejaydigan texnologiyalarni keng qo'llash, suv inshootlarini modernizatsiya qilish, sug'orish tadbirlari qiymati 5,5 mlrd dollarlik O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2025-2028-yillarga mo'ljallangan dasturi qabul qilindi.

Dastur doirasida suvni tejaydigan texnologiyalar qamrovi 61 foizga yoki 2,6 mln gektarga yetkazildi.

Prezidentimiz murojaatnomada suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy, kanallarni betonlash, eskirgan nasos agregatlarini yangilash kabi yo'nalishlar bo'yicha vazifalar qo'ydi.

Yig'ilishda ana shu vazifalarni jamoatchilikka yetkazish, joylarda ijrosini hal etishga hissa qo'shish haqida so'z bordi.

Jamoatchilik kengashi oldiga muhim vazifalar qo'yilganligi, shulardan kelib chiqib, vazirlik faoliyatida ochiqlik, qonuniylik, natijadorlik va sifatni o'rganib borish, rahbariyatga asoslantirilgan takliflar berish zarurligi qayd etildi.

Jamoatchilik kengashi a'zolaridan 3 nafari boshqa joyga ishga o'tganligi sababli ularning o'rniga yangi nomzodlarni kengashga qabul qilish masalasi ko'rildi.

Kengash a'zosi T.Doliyev Suv xo'jaligi vazirligining Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi boshlig'i Alikulova Dilafruz Ravshanovna, Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi bo'lim boshlig'i To'xtayev Jalol Omonovich, Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi matbuot kotibi Mamarasulov Umid Alijon o'g'li (mas'ul kotib)ning nomzodini taklif etdi.

Yig'ilishda kengash a'zosi M.Ikramova so'zga chiqib, Jamoatchilik kengashi a'zolarini 2026-yil uchun mo'ljallangan ish rejasining loyihasi bilan tanishtirdi.

Kengash a'zolari D.Ulug'murodov, A.Yusupov so'zga chiqib, o'z takliflarini bildirdilar.

Yig'ilish qaror qildi:

1. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining yangilangan tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining 2026-yil uchun mo'ljallangan ish rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Murojaatnomada suv xo'jaligi sohasi oldiga qo'yilgan vazifalar, shuningdek sohada korrupsiyaning oldini olish va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli targ'ibot tadbirlari OAVni jalb etgan holda izchil davom ettirilsin. Bu vazifa kengash a'zosi, Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi matbuot kotibi U.Mamarasulovga yuklatilsin.

3. Quyi tizim tashkilotlarida jamoatchilik kengashlari faoliyati o'rganib chiqilib, rahbariyatga tahliliy ma'lumot kiritilsin. Bu vazifa Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi bo'lim boshlig'i J.To'xtayevga topshirilsin.

Yig'ilish bayonnomasini

rasmiylashtirdi:

Kengash kotibi



U.Mamarasulov